QASHQADARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# QASHQADARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

***2021- YIL YANVAR-MART***
***(DASTLABKI MA'LUMOT)***

**Sanoat statistikasi bo'limi**
**Tel.: (75)-221-32-36**

# Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2021- yil yanvar-mart oylarida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2021- yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 4294,4 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 124,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (63,5 %) ni tashkil etdi.







***B**–Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat, **D**-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* *% da*







Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi oshishining asosiy omili bo‘lib, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 19,0 % ga ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 18,7 % ga va elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 66,8 % ga o‘sishi kuzatildi.

Shuningdek, suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda – 15,7 % ga pasayish kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 436,9 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 10,2 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, % da







## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

### O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

**Tabiiy qumlar**




**Gaz kondensati**




**Tabiiy gaz**




**Neft**




**Shag‘al**




**Chaqiq tosh**



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-mart | 2021- yil yanvar-mart | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Tabiiy qum, ming t. | 24,6 | 33,5 | 8,9 |
| Neft, ming t. | 6,6 | 7,7 | 1,1 |
| Tabiiy gaz, mln. kub.m. | 232,6 | 376,3 | 143,7 |
| Gaz kondensati, ming t. | 72,7 | 38,4 | -34,3 |
| Chaqiq tosh, ming t. | 22,4 | 27,2 | 4,8 |
| Shag‘al, ming t. | 19,2 | 9,9 | -9,3 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat







2021- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2727,8 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 63,5 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**, *% da*






O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2020- yilning yanvar-mart oylarida – 0,1 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 20,7 % (23,2 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 1,1 % (3,6 %) va quyi texnologiyalisi – 41,6 % (43,7 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoatining ulushi – 0,2 % (2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 131,2 %), to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 26,3 % (2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 150,3 %), kiyim ishlab chiqarishning ulushi – 2,0 % (2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 87,1 %), oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 12,5 % (2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,1 %), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 20,7 % (2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 129,9 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-mart oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 39,8 ming tonna paxta chigiti (2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 2,1 martaga oshgan), 27,1 ming tonna paxta tolasi (2,2 marta), 551,9 ming litr Aroq (119,6 %) ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

### O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

#### Paxta chigiti




#### Paxta tolasi




#### Paxta linti




#### Kaliy xlorid




#### Asfaltli aralashmalar




#### Oltingugurt




#### Og‘irligi 0,94 kam bo‘lmagan polietilen




#### Kalava ip




#### Yumshoq bug‘doy va spelta uni




#### O‘simlik yog‘i (tozalangan)




#### Aroq




#### Uzum vinosi



2021- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 5,9 ming tonna Asfaltli aralashmalar ishlab chiqarilib (2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 126,1 % ga oshgan), 50,0 ming tonna Kaliy xlorid (102,8 %), 0,3 ming tonna Oltingugurt (113,6 %), 35.0 ming tonna Og‘irligi 0,94 dan kam bo‘lmagan polietilen (100,7 %), 1,9 ming tonna Paxta linti (2,0 marta) ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-mart | 2021- yil yanvar-mart | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Og‘irligi 0,94 dan kam bo‘lmagan polietilen, ming t. | 34,8 | 35,0 | 0,2 |
| Asfaltli aralashmalar, ming t. | 4,7 | 5,9 | 1,2 |
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming t. | 36,5 | 36,7 | 0,2 |
| Paxta tolasi, ming t. | 15,9 | 27,1 | 11,2 |
| O‘simlik yog‘i (tozalangan), ming t. | 2,1 | 1,2 | -0,9 |
| Kaliy xlorid, ming t. | 48,6 | 50,0 | 1,4 |
| Plastmassa quvurlar, ming t. | 0,1 | 0,8 | 0,7 |
| Ip kalava, ming t. | 6,7 | 7,8 | 1,1 |
| Oltin gugurt, ming t. | 0,3 | 0,3 | 0,0 |

## Metallurgiya sanoati

*(2021- yil yanvar-mart oylarida)*




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-mart oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 12,6 % ga ko‘paygan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,2 % gacha ko‘tarilib, fizik hajm indeksi esa, 31,2 % ga o‘sdi va ishlab chiqarish hajmi 9,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

***Ma’lumot uchun: 2021- yilning yanvar-mart oylarida metallurgiya sanoatiga kiritilgan investitsiyalar 0,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.***

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

*(2021- yil yanvar-mart oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-mart oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 109,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,7 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 52,1 % ga pasydi va ishlab chiqarish hajmi 28,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(2021- yil yanvar-mart oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-mart oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 101,6 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,5 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 0,1 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 535,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




***Ma’lumot uchun: 2021- yilning yanvar-mart oylarida Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatiga kiritilgan investitsiyalar 4,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.***

## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*(2021- yil yanvar-mart oylarida)*




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-mart oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 83,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 99,7 % ga va ishlab chiqarish hajmi 22,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(2021- yil yanvar-mart oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-mart oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,1 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 92,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-mart oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,3 % ni, fizik hajm indeksi 50,3 % ga o‘sgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 1127,3 mlrd. so‘mni tashkil etd.




***Ma’lumot uchun: 2021- yilning yanvar-mart oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatiga kiritilgan investitsiyalar 609,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.***

## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*(2021- yil yanvar-mart oylarida)*




2020- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 99,1 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yil-ning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,0 % fizik hajm indeksi 87,1 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 87,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*(2021- yil yanvar-mart oylarida)*

2020- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 23,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 26,6 % ga oshgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 20,7 % ni, fizik hajm indeksi 129,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 888,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




***Ma’lumot uchun: 2021- yilning yanvar-mart oylarida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatiga kiritilgan investitsiyalar 0,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.***

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*(2021- yil yanvar-mart oylarida)*

2020- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plast-massa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 26,8 % ga oshgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,03 % ni, fizik hajm indeksi 100,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



# Elektr, gaz, bug‘ bilan taminlash va havoni konditsiyalash

*2021- yilning yanvar-mart oylarida*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1098,6 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (25,6 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 66,8 % ga oshganligi kuzatildi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *% da***







## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-mart | 2021- yil yanvar-mart | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt.s* | 2284,9 | 3511,1 | 1226,2 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 841,7 | 828,9 | -12,8 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 31,1 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *% da***







| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil Yanvar-mart | 2021- yil Yanvar-mart | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mlrd.so‘m* | 0,2 | 2,9 | 2,7 |
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar,** *mln.so‘m* | 9,4 | 12,1 | 2,7 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar 128,5 % shuningdek, Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 15,8 martaga o‘sishi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 868,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 114,4 % ga, uning jami sanoatdagi ulushi 20,2 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 4,5 % (2020- yil yanvar-mart oylarida 1,8 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 30,1 % ni, shuningdek, Qarshi tumani 11,5 % ni, Shahrisabz tumani 8,9 % ni hamda Koson tumani 7,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (114,4 %) darajasidan keyin Shahrisabz tumani (113,4 %), Qarshi va Nishon tumanlarida (110,1 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-mart oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati. | 868,0 | 100,0 | 114,4 |
| Qarshi sh. | 261,6 | 30,1 | 107,4 |
| Shahrisabz sh. | 55,6 | 6,4 | 108,7 |
| G‘uzor | 22,4 | 2,6 | 105,3 |
| Dehqonobod | 13,2 | 1,5 | 107,7 |
| Qamashi | 37,4 | 4,3 | 102,1 |
| Qarshi | 99,9 | 11,5 | 110,1 |
| Koson | 67,5 | 7,8 | 93,5 |
| Kitob | 41,0 | 4,7 | 104,6 |
| Mirishkor | 18,6 | 2,1 | 98,4 |
| Muborak | 17,2 | 2,0 | 104,9 |
| Nishon | 22,3 | 2,6 | 110,1 |
| Kasbi | 23,1 | 2,7 | 103,3 |
| Chiroqchi | 44,2 | 5,1 | 107,4 |
| Shahrisabz | 77,5 | 8,9 | 113,4 |
| Yakkabog‘ | 66,6 | 7,7 | 102,7 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to‘g‘ri kelib 30,0 % shuningdek, Qarshi tumani 13,3 % ni, Shahrisabz tumani 10,1 % hamda Koson tumani 6,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining oʻsish surʼatida yuqori koʻrsatkich Qarshi (117,9 %), Qarshi sh. (110,3 %), Nishon (107,7 %) hamda Dehqonobod va Qamashi (107,1 %) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar boʻyicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va oʻsish surʼati**

*2021- yilning yanvar-mart oylarida*

| Hudud | Mlrd. soʻm | Ulushi % da | Oʻsishi % da |
|---|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati. | 327,1 | 100,0 | 116,9 |
| Qarshi sh. | 98,1 | 30,0 | 110,3 |
| Shahrisabz sh. | 17,6 | 5,4 | 100,5 |
| Gʻuzor | 8,0 | 2,4 | 103,7 |
| Dehqonobod | 5,4 | 1,6 | 107,1 |
| Qamashi | 14,7 | 4,5 | 107,1 |
| Qarshi | 43,6 | 13,3 | 117,9 |
| Koson | 22,0 | 6,7 | 106,4 |
| Kitob | 16,9 | 5,2 | 102,6 |
| Mirishkor | 8,4 | 2,6 | 98,1 |
| Muborak | 6,6 | 2,0 | 102,0 |
| Nishon | 7,4 | 2,3 | 107,7 |
| Kasbi | 8,9 | 2,7 | 101,9 |
| Chiroqchi | 17,1 | 5,2 | 102,9 |
| Shahrisabz | 32,9 | 10,1 | 112,0 |
| Yakkabogʻ | 19,6 | 6,0 | 102,8 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga toʻgʻri kelib, 30,2 % ni, shuningdek, Qarshi tumani 10,4 % ni, Yakkabogʻ tumani esa 8,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Qarshi tumani (115,2 %), Shahrisabz (114,5 %) hamda Yakkabog‘ tumanlarida (112,4 %) qayd etildi.

**Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati**

*2021- yilning yanvar-mart oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati. | 540,9 | 100,0 | 112,6 |
| Qarshi sh. | 163,5 | 30,2 | 105,8 |
| Shahrisabz sh. | 24,1 | 7,0 | 106,9 |
| G‘uzor | 14,4 | 2,7 | 106,3 |
| Dehqonobod | 7,8 | 1,4 | 108,1 |
| Qamashi | 22,7 | 4,2 | 108,1 |
| Qarshi | 56,3 | 10,4 | 115,2 |
| Koson | 45,5 | 8,4 | 88,3 |
| Kitob | 24,1 | 4,5 | 106,0 |
| Mirishkor | 10,2 | 1,9 | 98,7 |
| Muborak | 10,6 | 2,0 | 106,8 |
| Nishon | 14,9 | 2,8 | 111,4 |
| Kasbi | 14,2 | 2,6 | 104,3 |
| Chiroqchi | 27,1 | 5,0 | 110,5 |
| Shahrisabz | 44,6 | 8,3 | 114,5 |
| Yakkabog‘ | 47,0 | 8,7 | 112,4 |

## <u>Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish</u>

*2021- yilning yanvar-mart oylarida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 815,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 19,1 % ni tashkil etdi.

## <u>Qashqadaryo viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari</u>

*2021- yilning yanvar-mart oylarida*

| | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati. | 4294,4 | 100,0 | 124,1 |
| Qarshi sh. | 645,0 | 15,0 | 120,3 |
| Shahrisabz sh. | 57,8 | 1,3 | 103,1 |
| G'uzor | 832,5 | 19,4 | 112,1 |
| Dehqonobod | 130,1 | 3,0 | 102,9 |
| Qamashi | 91,0 | 2,1 | 83,8 |
| Qarshi | 253,1 | 5,9 | 118,8 |
| Koson | 179,6 | 4,2 | 82,8 |
| Kitob | 46,9 | 1,1 | 95,4 |
| Mirishkor | 131,1 | 3,1 | 114,0 |
| Muborak | 144,2 | 3,4 | 86,7 |
| Nishon | 1158,3 | 27,0 | 167,3 |
| Kasbi | 365,6 | 8,5 | 175,7 |
| Chiroqchi | 98,8 | 2,3 | 116,6 |
| Shahrisabz | 89,6 | 2,1 | 105,4 |
| Yakkabog' | 70,8 | 1,6 | 108,5 |

## Qashqadaryo viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati *% da*




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Kasbi (2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 175,7 %), Nishon (167,3 %), Qarshi sh. (120,3 %), Qarshi (118,8 %), Chiroqchi (116,6 %) hamda Mirishkor (114,0 %) tumanlarida sezilarli darajada oshdi.

### Qashqadaryo viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko'p ulush Nishon (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 27,0 % i) hamda G'uzor (19,4 %), Qarshi sh. (15,0 %), Kasbi (8,5 %) va Qarshi (5,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Kitob (1,1 %) hamda Shahrisabz shahriga (1,3 %) to'g'ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nishon (7 429,9 ming so‘m), G‘uzor (4 000,4 ming so‘m) tumanlarida hamda Qarshi shahrida (2 312,7 ming so‘m) o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (1 285,0 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish**

*2021- yilning yanvar-mart oylarida, ming so‘m*

| | *Sanoat mahsulotlari* | Istemol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati | 1 285,0 | 259,7 |
| Qarshi sh. | 2 312,7 | 938,1 |
| Shahrisabz sh. | 410,7 | 395,0 |
| G‘uzor | 4 000,4 | 107,5 |
| Dehqonobod | 866,7 | 87,9 |
| Qamashi | 330,7 | 135,8 |
| Qarshi | 999,4 | 394,3 |
| Koson | 616,8 | 231,6 |
| Kitob | 175,7 | 153,5 |
| Mirishkor | 1 076,0 | 153,0 |
| Muborak | 1 629,1 | 194,4 |
| Nishon | 7 429,9 | 143,2 |
| Kasbi | 1 826,9 | 115,4 |
| Chiroqchi | 234,6 | 105,1 |
| Shahrisabz | 400,0 | 346,0 |
| Yakkabog‘ | 265,9 | 249,8 |

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 259,7 ming so‘m bo‘lgani holda, Qarshi sh. – 938,1 ming so‘mni, Shahrisabz sh. – 395,0 ming so‘mni, Qarshi tumanida – 394,3 ming so‘mni, so‘mni tashkil etdi.

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda**
**kichik biznesning ulushi**
*2021- yilning yanvar-mart oylarida, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 925,7 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 21,6 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 94,1 %), Mirishkor (89,7 %), Shahrisabz (80,5 %) tumanlarida kuzatildi.






Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Nishon (1,9 %), G‘uzor (3,6 %), Kasbi (6,3 %) va Dehqonobod (10,1 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## <u>Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari</u>

*(2021- yil 1- aprel holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda viloyatda 4224 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 805 tasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 19,0 % i) Qarshi shahriga, 484 tasi (11,5 %)  Kitob tumaniga, 384 tasi (9,0 %) Yakkabog‘ tumaniga, 342 tasi (8,0 %) Chiroqchi tumaniga, 341 tasi (8,0 %) Shahrisabz shahriga, 309 tasi (7,3 %) Qarshi tumaniga to‘gri kelmoqda.




2021- yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 396 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 71 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 17,9 %) Qarshi shahrida, 44 tasi (11,1 %) Kasbi tumanida, 40 tasi ( 10,1 %) G‘uzor tumanida, 36 tasi (9,0 %) Qarshi tumanida, 27 tasi (6,8 %) Yakkabog‘ tumanida tashkil etildi.

## Viloyat sanoat korxonalarining mahalliylashtirish darajasi

(2021- yil 1- aprel holatiga ko‘ra)

| | 2020- yil yanvar-mart | 2021- yil yanvar-mart |
|---|---|---|
| **Loyihalar soni, birlik** | 42 | 105 |
| **Korxonalar soni, birlik** | 35 | 50 |
| **Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m** | 12,3 | 46,6 |
| **Eksport qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSH doll.** | - | 0,1 |
| **Yaratilgan yangi ish o‘rinlari, birlik** | 18 | 46 |

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 105  ta loyiha bo‘yicha 46.6 mlrd. So‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan, shuningdek 46 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi.